

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12. 2019.Qx.13.02. RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI**

UTEMURATOV AZAMAT BAXITBAEVICH

**“QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA AFG‘ON GENOFONDIGA
MANSUB KO‘K RANGLI QO‘CHQORLARDAN FOYDALANISHNING
SAMARADORLIGI”**

06.02.03 - Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам.**

**Contens of dissertation abstract of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Utemuratov Azamat Baxitbaevich

Qoraqalpog‘iston sharoitida afg‘on genofondiga mansub
ko‘k rangli qo‘chqorlardan foydalanishning samaradorligi 3

Утемурагов Азамат Бахитбаевич

Эффективность использования баранов серой окраски афганского
генофонда в условиях Каракалпакстана..... 23

Utemuratov Azamat Bakhitbaevich

The effectiveness of using gray-colored rams from the afghan
gene pool in the conditions of Karakalpakstan.....43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published work47

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12. 2019.Qx.13.02. RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI**

UTEMURATOV AZAMAT BAXITBAEVICH

**“QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA AFG‘ON GENOFONDIGA
MANSUB KO‘K RANGLI QO‘CHQORLARDAN FOYDALANISHNING
SAMARADORLIGI”**

06.02.03 - Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1. PhD/Qx1363 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) “Ziyonet” Axborot-talim portalida (www.ziyonet.uz) hamda Milliy axborot agentligi (UzA) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turganbayev Ruzimbay Urazbayevich
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ro‘ziboyev Nuraddin Raximovich
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Bozorov Soli Raxmatovich
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 raqamli Ilmiy Kengashning 2025 yil “__” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 260-48-60; e-mail: tuag-info@edu.uz Toshkent davlat agrar universiteti ma‘muriy binosi, 1-qavat anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (554936-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy. ToshDAU ARM binosi, 1-qavat. Tel: (99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “__” _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil “__” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

Sh.R.Umarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

A.N.Batirova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, q.x.f.d., dotsent

Q.J.Shakirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda dunyo qorako'lichiligi chorvachilikning cho'l va yarim cho'l hududlarida rivojlanayotgan muhim tarmog'i bo'lib, Jahon Oziq-ovqat va Qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ning ma'lumotlariga ko'ra «... dunyoning 50 dan ortiq davlatlarida 48,6 mln boshdan ko'proq qorako'l qo'y zotlari ko'paytirib kelinmoqda»¹. So'nggi yillarda jahon miqyosida qorako'l terilarga, aynan ko'k rangli terilarga ichki va tashqi bozorlarda talab ortib borayotganligi sababli, ko'k rangli turli rangbaranglikdagi qorako'l qo'ylar nasldorlik va mahsuldorlik xususiyatlari hamda qo'chqorlar genofondini yanada takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlarini yanada kengaytirish talab etiladi. Hozirda Afg'onistonda umumiy qo'ylar 8,8 million boshdan ortiqni tashkil etib, shundan 2,6 million bosh qorako'l qo'ylar hissasiga to'g'ri kelib, ularning nasldorlik va mahsuldorlik xususiyatlarini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda, qo'ylar genofondini saqlab qolish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyo qorako'lichiligi rivojlangan Janubiy Afrika Respublikasi, Namibiya, Afg'oniston, Rossiya va Moldova kabi bir qator davlatlarda qorako'l qo'ylarni biologik, mahsuldorlik, urchitish va reproduktiv belgilarini yaxshilashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ushbu davlatlarda turli rangbaranglikda qorako'l qo'ylarni joylashtirish, ularni naslchilik ishlarini tashkil etish va ko'paytirish borasida yangi ilmiy asoslangan uslubiyotlar ishlab chiqilmoqda. Qorako'l qo'ylarning irsiy salohiyatini yaxshilash va sifatli qorako'l teri ishlab chiqarishni boshqarishning samarali seleksion-genetik usullarini ishlab chiqish, naslchilik hududlarini tanlash hamda ulardan samarali foydalanish borasida keng imkoniyatlar yaratilgan. MDH davlatlarida ham turli rangdagi qorako'l qo'ylarini urchitish hamda ko'paytirish bo'yicha salmoqli natijalarga erishilgan. Bu borada Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Rossiya, Moldova davlatlarida salmoqli ilmiy-tadqiqot va seleksiya ishlari olib borilib, asosan, qora, ko'k, buxoro sur qorako'l qo'ylarining qimmatli seleksion suruvlari yaratilgan. Umuman olganda, qorako'lichilik sohasida yuqori sifatli qorako'l teri go'sht va jun mahsulotlari ishlab chiqarishda turli hududlar tabiiy iqlim sharoitiga mos yuqori genetik salohiyotiga ega qorako'l qo'ylar genofondini saqlab qolish va takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida qorako'l qo'ylar seleksiyasini takomillashtirish orqali turli rangbaranglikdagi qorako'l qo'ylar zotini yaxshilash bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Qorako'l zotli qo'ylar teri mahsuldorlik, biologik xususiyatlarini yaxshilab borish maqsadida ilmiy tadqiqotlar olib borish bilan bir qatorda cho'l yaylovlarini ajratish va ulardan oqilona foydalanish borasida ma'lum bir yutuqlarga erishib kelinmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "...32-maqсад: Chorvachilik oзуqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish

¹ <https://bigenc.ru/agriculture/text/2044645>

hajmini 1,5-2 baravar ko‘paytirish”² vazifasi belgilab berilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, dunyo bozori talablariga javob beradigan yuqori sifatli qorako‘l terilari yetishtirish borasida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish asosida qorako‘l qo‘ylar genofondini yaxshilash bilan bir qatorda turli davlatlar genofondiga mansub ko‘k rangli naslli qo‘chqorlar bilan mahalliy qorako‘l qo‘ylarini juftlashtirish, ularni o‘sish va rivojlanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali irsiy jihatdan yuqori xususiyatlarga ega avlodlarini olish bugungi kunning muhim ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi PQ-4984-sonli “Qorako‘lchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va 2020-yil 2-sentabrdagi PF-6059-sonli “O‘zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi dolzarb hisoblanadi va muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalish doirasida bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy davlatlarining soha olimlari tomonidan qorako‘l qo‘ylari podalarining reproduktiv holatini qayta tiklash, qorako‘l qo‘ylarining morfologiyasini tadqiq etish, yangi tiplarini yaratish, fenotip ko‘rsatkichlari bo‘yicha bonitirovka qilish, qo‘ylarning mahsuldorligini oshirish, cho‘l sharoitida biologik va mahsuldorligini oshirishni hamda qorako‘l qo‘ylarning seleksiyasi, ko‘k rangli qorako‘l qo‘ylari seleksiyasi, mahsuldorlik xususiyatlari va bosh sonini ko‘paytirish borasida K.Martins, Dj.Piters, A.A.Saed, A.M.Musavi, A.M.Azimi, X.Ukboev, T.Umurzoqov, K.Ahmedov, Sapranov kabi olimlarning tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir.

Mamlakatimizda ko‘k qorako‘l qo‘ylari seleksiya va naslchiligi, qorako‘l qo‘ylarini samarali seleksiyalashning ekologik va genetik asoslari, turli hududlar tabiiy iqlim sharoitlariga qorako‘l qo‘ylarini moslanuvchanligi, Qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylari mahsuldorligini oshirishning ilmiy asoslari va seleksion usullari kabi yo‘nalishlarda N.S.Gigineyshvili, V.I.Stoyanovskaya, S.Yu.Yusupov, B.K.Ajiniyazov, A.Gaziyevlar tomonidan bir qator ishlar olib borilib, ijobiy natijalarga erishilgan.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda qo‘ylar, ayniqsa turli rangbaranlikdagi qorako‘l qo‘ylar bosh sonini ko‘paytirish, ularning teri va go‘sh mahsuldorlik xususiyatlarini yaxshilashda turli xududlar genofondiga mos qo‘chqor va qo‘ylarni juftlashtirish orqali yangi avlod tiplarini yaratish nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo miqyosida dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60 sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

dissertatsiya tadqiqot ishlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 0031-raqami bilan ro'yxatga olingan "Qorako'l zotli qo'ylarning nasliy imkoniyatlaridan foydalanishning samarali modulini ishlab chiqish" mavzusi doirasida bajarilgan (2024-2025 yy.).

Tadqiqotning maqsadi. Afg'on genofondiga mansub ko'k rangli naslli qo'chqorlar mahalliy qorako'l qo'ylarini juftlashdan olingan F₁ avlodlarning qorako'l terisi sifati, jun va go'sht mahsuldorligini aniqlash va seleksiya ishlarida qo'llash hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

afg'on genofondiga mansub ko'k rangli qo'chqorlarni mahalliy qorako'l qo'ylari bilan juftlashdan olingan F₁ avlodlarning biologik xususiyatlarini aniqlash;

afg'on genofondiga mansub ko'k rangli qo'chqorlarni mahalliy qorako'l qo'ylari bilan juftlashdan olingan F₁ avlodlarning teri sifat belgilarining namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash;

jun mahsuldorligi hamda jun qoplaminig morfologik tarkibiy xususiyatlarini aniqlash;

go'sht mahsuldorligi va go'shtdorlik koeffitsiyentini aniqlash; afg'on genofondiga mansub ko'k rangli qo'chqorlarni mahalliy qorako'l qo'ylari bilan juftlashdan olingan F₁ avlodlarini urchitishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida afg'on genofondiga mansub ko'k rangli qo'chqorlari, mahalliy qorako'l qo'ylari, qo'zilar, qorako'l terilari, jun, sut va go'sht namunalari olindi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, afg'on genofondiga mansub ko'k rangli qo'chqorlari bilan mahalliy qorako'l qo'ylarini juftlashdan olingan F₁ avlodlarning konstitutsiya tipi, o'sishi va rivojlanishi, eksteryer ko'rsatkichlari, teri sifat ko'rsatkichlari, jun va go'sht mahsuldorlik ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda umumqabul qilingan zootexniya, biologik, texnologik va statistik tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor afg'on genofondiga mansub ko'k rangli qo'zilar qora qo'zilarga nisbatan tirik vazni bo'yicha biroz kichikroq bo'lib, tug'ilgan davrda urg'ochi qo'zilarga nisbatan 0,32 kg va erkak qo'zilarda esa 0,29 kg ni tashkil qildi ($p>0,05$). 5,5-6,0 oylik davriga kelib farqlanishlar urg'ochi qo'zilarda mos ravishda 1,1 kg va erkak qo'zilarda 2,0 kg ga yetkazish mumkinligi asoslangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ustyurt platosi sharoitida afg'on genofondiga mansub ko'k rangli qo'chqorlarni mahalliy qorako'l qo'ylari bilan juftlashdan olingan F₁ avlodlarning teri sifati oshishiga, havorang rang-baranglikka mansub terilarning elita+1-sinf qo'zilar ulushi 65,3 % ga, po'latrang rang-baranglikdagi qo'zilar ulushi 61,1 % ga ko'tarilganligi asoslangan.

jun mahsuldorligining miqdor va sifat ko'rsatkichlari yaxshilanib, yillik jun mahsuldorligi havorang rang-barangli qo'chqorlardan olingan avlodlar ko'k rangli urg'ochi qo'ylarda 2070,5±190,7 grammga, qora rangdagi urg'ochi qo'ylarda

2207,5±211,6 g-ga yetkazilib, rentabellik darajasi ko'k ranglilarda 13,1 %, qora ranglilarda esa, 9,1 % ekanligi isbotlangan.

afg'on genofondiga mansub ko'k rangli qo'chqorlardan olingan avlodlarda go'sht yetishtirishning maqbul muddatlari aniqlandi va go'shtdorlik koeffitsiyenti 3,4 ga yetkazilib, rentabellik ko'k rangli qo'zilar 22,5 %, qora ranglilarda esa 29,2 % darajaga oshirish mumkinligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

ko'k va qora qo'ylarning geterojen seleksiyasidan olingan naslning teri sifat ko'rsatkichlari aniqlandi;

ko'k qo'ylarni tanlash va saralash orqali mahsuldorlik va biologik xususiyatlari o'rganildi;

havorang rang-baranglikdagi ko'k terilarda yarim doira tipi ulushi 53,8±4,3 % ni, yassi tipga mansub qo'zilar miqdori 7,7±0,6 %, qovurg'asimon terilar 15,4±1,2 % va o'siq gul tipidagilar 23,1±2,3 % ni tashkil qildi. Po'latrang rang-baranglikdagi qo'zilar shunga mos ravishda 55,6±5,5 % ($p>0,01$); 5,6±0,4 %; 16,7±1,5 % va 22,2±2,1 % ni tashkil qildi.

Qoraqalpog'iston sharoitida naslchilik bazasini yaratish, qorako'l xomashyosini ishlab chiqarishning miqdorini oshirish va eksportga yo'naltirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotida zamonaviy uslub va vositalardan foydalanganligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali Veterinariya va zootexnologiya fakulteti aprotatsiya komissiyasi tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari va birlamchi materiallarga ijobiy baho berilganligi, olingan ma'lumotlarga kichik tanlanmalar usulida statistik ishlov berilganligi, joriy etish dalolatnomalar bilan tasdiqlangani va ilmiy-tadqiqot natijalari yetakchi ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda chop qilinganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida afg'on genofondiga mansub ko'k rangli qo'chqorlarni mahalliy qorako'l qo'ylari bilan juftlashdan olingan avlodlarning qorako'l teri, go'sht va jun mahsuldorligining miqdor va sifatini oshirishda ilmiy asoslangan seleksiya usullari ishlab chiqilganligi, natijada yuqori mahsuldor hayvonlar podalarini yaratilishi ilmiy ma'lumotlar bilan tasdiqlanganligidadir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, qorako'l mahsulotlari yetishtirishni miqdor va sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan seleksiya va texnologik usullaridan foydalangan holda, qorako'l sifatini yaxshilash, go'sht va jun yetishtirishni ko'paytirish, ishlab chiqarish birligiga xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Olingan ma'lumotlar qorako'l mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirishda qo'llaniladigan seleksiya va texnologik usullarni sezilarli darajada to'ldiradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida afg'on genofondiga mansub ko'k rangli qo'chqorlarni mahalliy qorako'l

qo'ylari bilan juftlashdan olingan F₁ avlodlarning qorako'l teri, go'sht va jun mahsuldorligining oshirish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

ko'k rangli qorako'l terilari sifatini oshirish usuli Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumani "Ustyurt qorako'lchilik markazi" Ishlab chiqarish korporativida joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 23-yanvardagi 33/01-05-67-son ma'lumotnomasi). Natijada "Ustyurt qorako'lchilik markazi" ishlab chiqarish korporativida, tajribadagi havorang rang-barangli qo'chqorlardan olingan avlodlarning ko'k rangli teridan olingan sof foyda 700000 so'm va qora rangli terilardan esa, 500000 so'm, po'latrang rang-barangli qo'chqorlardan olingan avlodlar ko'k terisidan 600000 so'm va qora ranglilardan esa, 450000 so'm sof foyda olinib, rentabellik darajasi shunga mos ravishda 31,5 %; 22,5 %; 27,0 % va 20,2 % ni tashkil etgan.

Ko'k va qora rangli qorako'l qo'zilaridan go'sht yetishtirish bo'yicha tadqiqotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumani "Aq Tolqin" qorako'lchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligida joriy etilgan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 23-yanvardagi 33/01-05-67-son ma'lumotnomasi). Natijada Qo'ng'irot tumani "Aq Tolqin" fermer xo'jaligida afg'on genofondiga mansub ko'k rangli qo'chqorlar bilan qora rangli qo'ylarni juftlash natijalaridan olingan avlodlarning havoranga mansub qo'chqorlarning go'sht mahsuldorligidan olingan sof foyda ko'k rangli avlodlarda 512640 so'm, qora rangli avlodlarda esa, 540480 so'm va po'latrang rang-barangli qo'chqorlardan olingan avlodlarda shuga mos ravishda 429120 so'm va 557010 so'mni tashkil etgan.

Ko'k va qora rangli qorako'l qo'ylaridan jun yetishtirish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtakopir tumani "Janadarya qorako'lchilik markazi" Ishlab chiqarish korporativida joriy etilgan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 23-yanvardagi 33/01-05-67-son ma'lumotnomasi). Natijada Taxtakopir tumani "Janadarya qorako'lchilik markazi" ishlab chiqarish korporativida tajribadagi havorang rang-barangli qo'chqorlardan olingan avlodlarning ko'k rangli qo'ylar jun mahsuldorligidan olingan sof foyda 17589 so'm va qora rangli qo'ylar jun mahsuldorligidan esa, 12972 so'm, po'latrang rang-barangli qo'chqorlardan olingan avlodlar ko'k qo'ylar jun mahsuldorligidan 14224 so'm va qora ranglilardan esa, 10008 so'm sof foyda olinib, rentabellik darajasi shunga mos ravishda 13,1 %; 9,1 %; 9,1 % va 7,1 %-ni tashkil qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi bo'yicha bajarilgan tadqiqotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumani "Ustyurt" qorako'lchilikka ixtisoslashgan xo'jaligining ishlab chiqarish yig'ilishlarida (2023-2024 yy.), Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali aprobatsiya komissiyasi (2023-2024 yy.), Zootexnologiya kafedrasida yig'ilishlarida (2023-2024 yy.) hamda 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta, shundan xalqaro va respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari to'plamida 4 ta, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan jurnallarda 3 ta, shundan 1 ta xorijiy jurnalda hamda 1 ta ishlab chiqarishga tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, ishlab chiqarishga tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 107 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga, oliy ta'lim muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga mosligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti, predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyotlar sharxi”** deb nomlangan birinchi bobida qorako'l qo'ylarining kelib chiqishi va qorako'l gullarining shakllanishi bo'yicha tahlillar, ko'k rangli qorako'l qo'ylarining o'ziga xos seleksiya usullari tajribalari va qorako'l qo'ylarining mahsuldorligi oshirishdagi ta'sir etuvchi omillar bo'yicha olib borilgan xorijiy, mustaqil davlatlar xamkorligi va O'zbekiston olimlarining ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan va tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot manbai va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o'tkazish joyi, tadqiqotning material va metodikasi, Ustyurt platosining iqlim sharoitlari, Ustyurtning tabiiy yaylov sharoitlari va afg'on genofondiga mansub ko'k rangli naslli qo'chqorlarga tarif bayon qilingan.


Dissertatsiyaning **“Mahsuldorlik ko'rsatkichlari”** nomli uchinchi bobida afg'on genofondiga mansub qo'chqorlar bilan mahalliy qo'ylarni jutlashda avloddan-avlodga o'tishi, qorako'l terilarining tovar xususiyatlari, ko'k rangli qo'zilar rang-barangligining bir tekis joylashuvi, teri gullarining uzunligi, kengligi, balandligi va zichligi o'lchamlari, rasm tipi ko'rsatkichlari, teri jun tolasining ipaksimonligi va yaltiroqligi, teri tiplari va sinfi, go'sht mahsuldorligi va submahsulotlar chiqimi, jun mahsuldorligi va uning morfologiyasi kabi ko'rsatkichlar keltirilgan bo'lib, bizning tajriba ishlarimiz jarayonida asosan ko'k rangli qorako'l terilar salmog'ini oshirish maqsad qililib, bunda ko'k qo'chqorlarni qora rangdagi qo'ylar bilan juftlash orqali kelgusida ko'k rangli teri beruvchi qo'zilar bosh sonini oshirishdir.

Avloddan avlodga o'tish ko'rsatkichlari (2023 y.)

Juftlashda qo'llanilgan qo'chqor		Olingan avlodlar, shundan				
rangi	Rang-barangligi	Bosh soni	ko'k	%	qora	%
ko'k	Havorang, №2356-2357	104	55	52,9	49	47,1
ko'k	Po'lati rang, №2398-2399	97	50	51,5	47	48,5

Ushbu 1-jadval ma'lumotlarida keltirilishicha, ko'k rangli afg'on genofondiga mansub qo'chqorlar bilan mahalliy qora rangli qo'ylarni jutlashda ko'k rangga mansub havorang va po'lati rang-barangli qo'chqorlar olinib, havorang rang-barangli qo'chqordan jami 104 bosh qo'zi olindi. Shundan 55 bosh ko'k rangli va 49 bosh qora rangli qo'zilar tashkil qildi. Ko'k rangli qo'zilar ulushi 52,9 %-ni va qora rangli qo'zilar ulushi esa, 47,1 foizga teng bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich shunga mos ravishda po'latirang rang-barangli qo'chqorlardan 51,5 % va 48,5 % ko'k rangli qo'zilar olindi.

Mahalliy qora rangli qorako'l qo'ylarni ko'k rangli havorang va po'lati rangli qo'chqorlar bilan juftlashda rang-barangliklar bo'yicha taqsimlanishi quyidagi 1-rasmda o'z aksini topdi.



1-rasm. Rang-barangliklar bo'yicha taqsimlanishi (2023 y.)

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shundan darak beradiki, havorang rang-baranglikdagi va po'latirang rang-baranglikdagi qo'chqorlardan juftlash ishlarida foydalanganda, o'ziga xos bo'lgan rang-baranglikdagi qo'zilar ulushi quyidagicha bo'ldi.

Havorang rang-barangli qo'chqorlardan o'ziga xos yuo'lgan rang-baranglik qo'zilar ulushi 38,2 % va po'latirang rang-baranglikdagi qo'zilar ulushi esa, 33,0 %-ni tashkil qildi va shu bilan birga sutrang rang-barangli quzilar 1,8 %, po'latirang rang-barangli quzilar 5,0 %, kumushrang rang-barangli qo'zilar 17,5 % qo'rg'oshinrang rang-barangli quzidar ulushi 5,5 % oq tushgan rang-barangli qo'zilar ulushi esa, 11,3 %, marvarid rang-barangli qo'zilar ulushi 7,2 % va qora ko'k rang-barangli qo'zilar 1,0 %-ni tashkil qildi.

Bizning tajriba ishlarimizda afg'on genofondiga mansub qo'chqorlar bilan mahalliy ko'k rangli qo'ylarni juftlashdan olingan avlodlarning teri yuzasi bo'ylab

rang ko'rsatkichlarining bir tekisligini o'rganish maqsad qilindi va tajriba davomida olingan ma'lumotlar 2-jadvalda o'z aksini topgan.

2-jadval.

Ko'k rangli qo'zilar rang-barangligining birtekis joylashuvi, % (2023 y.)


Qo'chqorlar		Olingan avlodlar bosh soni	Rang-baranglikning bir tekisligi		
Rangi	Rang-barangligi		bir tekis	bir tekisligi kam	bir tekis emas
Ko'k	Havorang	55	63,6±5,42*	21,8±2,37	14,6±1,08
	Po'latirang	50	54,0±4,76	26,0±2,41*	20,0±1,76**

*p>0,05., **p>0,01

2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, olingan ko'k rangli qo'zilar rang-barangligi bo'yicha, keskin farq qiladi. Havorang rang-barangli qo'zilar terisining yuzasi bo'ylab birtekislik rangning joylashuvi bo'yicha, bir tekis joylashuvli 63,6±5,42 %-ni tashkil qilgan bo'lsa, bir tekisligi kam joylashuvli terilar miqdori 21,8±2,37 %-ga teng bo'lib va bir tekis emas terilar soni 14,6±1,08 %-ni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha, po'latirang rang-barangli qo'zilar shunga mutanosib ravishda 54,0±4,76 %; 26,0±2,41 % va 20,0±1,76 %-ga teng bo'ldi. Rang-barangliklar orasida farqlanishlar kuzatilib, havorang rang-baranglikka ega qo'zilar ancha ustunligini ko'rish mumkin.

Havorang rang-baranglikdagi teri yuzasi bo'ylab birtekislik joylashuvining po'latirang rang-baranglikka nisbatan ancha ustunlikka ega bo'lib, bir tekis joylashuv bo'yicha, 9,6 %-ga ko'p, bir tekisligi kam joylashuv bo'yicha 4,2 %-ga ko'p va bir tekis emas joylashuv bo'yicha esa, 5,4 %-ga kam bo'ldi.

Teri gullari uzunligi va kengligi uning balandligi bilan chambarchas bog'lik bo'lib, bizning tajriba ishlarimiz davomida olingan ma'lumotlar 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm. Teri gullarining balandligi o'lchamlari, % (2023 y.)

2-rasm ma'lumotlarida keltirilishicha, teri gullari balandligi bo'yicha, past, o'rta va baland kategoriyalarga bo'linib, ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha havorang rang-baranglikka mansub qora qo'zilarida past gullar miqdori 14,9 %-ga teng bo'lgan bo'lsa, ko'k ranga mansub qo'zilarida esa, 7,7 %-ni tashkil qildi (p>0,05). Shunga mos ravishda o'rta baland gullar miqdori 52,8 % va 33,3 % bo'lib, ko'k rangga mansub qo'zilarida 37,0 % va 53,8 %-ni tashkil qildi (p>0,05). Yuqorida

keltirilgan qisqacha ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, gullardan hosil bo'ladigan rasm tipi joylashuvi qorako'lining go'zalligi va shunga mos ravishda qimmatini belgilovchi muhim seleksion belgi hisoblanadi.


Ushbu omilni inobatga olgan holda, biz, ko'k va qora rangli qorako'l qo'zilaridagi rasm tipi tasvirini o'rganish maqsad qilindi va ushbu olingan ma'lumotlar 3-rasmda keltirilgan.

3-rasmda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qora rangli qo'zilar terisida parallel-konsentrik joylashuvli rasm tipiga mansub 52,8 %-ni tashkil qilgan bo'lsa, ko'k rangli havorang rang-barangli qo'zilarida ushbu ko'rsatkich 30,8 %-ga teng bo'ldi ($p>0,05$). Parallel to'g'ri joylashuvli ram tipi esa, shunga mos ravishda 14,3 % va 15,4 %-ni tashkil qildi. Qora rangli terilarga ko'proq parallel konsentrik joylashuvli rasm tipi kuzatildi. Xuddi shunday tendensiya po'latirang rangbarangli terilarda ham kuzatildi. Qora rangli terilarda qimmatbaho parallel konsentrik joylashuvga mansub rasm tipli 46,8 %-ni tashkil qilgan bo'lsa, ko'k rangli terilarda ushbu ko'rsatkich 25,0 %-ga teng bo'ldi. Har ikkala rang-baranglikka mansub terilarda ham qora rangli terilar ustunligi bilan ko'k ranga nisbatan 10,8 %-dan 21,6 %-gacha farqlanishlar kuzatildi ($p>0,01$).



3-rasm. Gullarning joylashuvi rasmi ko'rsatkichlari, % (2023 y.)

Terining xaridorlirligini oshiruvchi ushbu sifat ko'rsatkichlari bizning tajriba ishlarimizda ipaksimonlik va yaltiroqlilik ko'rsatkichlarini aniqlash natijalari quyidagi 4-rasmda keltirilgan.



H-havorang rang-baranglik, P- po'latirang rang-baranglik

4-rasm. Teri jun tolalarining ipaksimonlik va yaltiroqliligi, % (2023 y.)

4-rasm ma'lumotlarida keltirilishicha, kuchli va me'yor darajasidagi ipaksimonlik ko'rsatkichlari havorang rang-baranglikka mansub qo'zilar terisida 92,3 %-ni tashkil qilgan bolsa, qora rangdagilarda 95,2 %-ga teng bo'ldi. Ranglar orasidagi farq 2,9 %-ga teng bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich po'latirang rang-baranglikka mansub qo'chqorlardan olingan avlodlarda ko'k rangdagi qo'zilar terisida 91,7 % va qora rangdagilarda esa, 96,9 %- tashkil qilib ($p>0,01$), farqlanish ko'rsatkichi 5,2 %ga teng bo'ldi. Umuman xulosa qilib aytsak, qora rangdagi qo'zilar terisida ipaksimonlik va yaltiroqlilik ko'rsatkichlari bo'yicha ustunlik kuzatildi.

Tadqiqot ishlari natijalari va amaliy kuzatuvlar qorako'l qo'zilar va ularning terisining sifati podalarda olib borilayotgan seleksiya-naslchilik ishlari darajasiga, ularda urchitilayotgan hayvonlarning teri tipiga bog'liqligi aniqlandi.

Asosiy seleksiya belgilari sifatida e'tirof etilgan yarim doirali tipga ega gul turlariga asoslangan qorako'l qo'ylarini teri turlari bo'yicha baholash, tasniflash va seleksiyalashning yangi tamoyillarini ishlab chiqish, ichki va tashqi bozorlarning o'rnatilgan talablarini hisobga olgan holda amalga oshirildi.

Bizning tajriba ishlarimizda teri tiplarini aniqlash natijalari 3-jadvalda o'z aksini topdi.

3-jadval.

Teri tiplari, % (2023 y.)

Rangi	Rang-barangligi	Olingan avlodlar rangi	Bosh soni	Teri tiplari, $X \pm S_x$			
				yarim doira	yassi	qovurg'a	o'siq gul
Ko'k	Havorang	Ko'k	26	53,8±4,3*	7,7±0,6**	15,4±1,2*	23,1±2,3
		Qora	21	57,1±5,4	4,8±0,3	14,3±1,2	23,8±2,2*
	Po'latirang	Ko'k	36	55,6±5,5*	5,6±0,4	16,7±1,5	22,2±2,1
		Qora	32	56,3±5,2	3,1±0,2***	18,8±1,9	21,9±2,3*

* $p>0,05$., ** $p>0,01$. *** $p>0,001$

3-jadval ma'lumotlari tahlili shundak darak beradiki, havorang rang-baranglikdagi ko'k terilarda jaket tipi ulushi 53,8±4,3 %-ni tashkil qilgan bo'lsa, yassi tipga mansub qozilar miqdori 7,7±0,6 % ($p>0,05$), qovurg'asimon tarilar bo'lsa, 15,4±1,2 % va kavkaz tipidagilar esa, 23,1±2,3 %-ga teng bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich po'latirang rang-baranglikdagi qo'zilar shunga mos ravishda 55,6±5,5 %; 5,6±0,4 %; 16,7±1,5 % va 22,2±2,1 %-ni tashkil qildi ($p>0,05$). Rang-barangliklar orasida farq kuzatilib, jaket tipiga mansub qo'zilar ulushi havo rang rang-baranglikdagi qo'zilar 1,8 %-ga kam bo'lgan bo'lsa, yassi tipga mansub qo'zilar ulushi 2,1 % ko'proq bo'ldi. Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, teri jun tolasida rang pigmentatsiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, yarim doirali gullar miqdori shuncha ko'p bo'lgan. Ushbu teri tipi ko'rsatkichlari majmuaviy bahosi bo'lgan teri sinfiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Qo'zilarning sinfliligi nasliy sifatini, teri va jun tolasini qoplarning jingalaklari sifatini baholashning kompleks ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi; bu tanlash turlari va foydalanilgan ota-ona juftliklarini baholashda eng ob'ektiv tarafdirdir. Bizning tajriba ishlarimizda teri sinfi bo'yicha keltirilgan ma'lumotlar 4-jadvalda o'z aksini topdi.

4-jadval

Terining navlari va assortimenti, % (2023 y.)

	Rang-barangligi	Olingan avlodlar rangi	Bosh soni	Teri navlari, %			
				elita	1-sinf	2-sinf	yaroqsiz
Ko'k	Havorang	Ko'k	26	11,5±0,12	53,8±5,27*	30,8±3,21	3,9±0,82*
		Qora	21	14,3±0,14**	52,3±5,22	28,6±2,72	4,8±0,39**
	Po'latrang	Ko'k	36	8,3±0,09	52,8±5,17	36,1±3,51	5,6±0,54
		Qora	32	9,4±0,11**	56,3±5,42	31,3±3,02*	3,1±0,29

*p>0,05., **p>0,001

4-jadval tahlilidan xulosa qilish mumkinki, qora rangli qo'zilar teri sinfi bo'yicha biroz ustunlik qilib, havrang rang-baranglikka mansub ko'k rangli terilarga nisbatan elita+1-sinf qo'zilar ulushi 1,3 %-ga, po'lati rang rang-baranglikdagi qo'zilar ulushi 4,6 %-ga ustunligi ko'rish mumkin (p>0,05).

Bizning tajriba ishlarimizda afg'on genofondiga mansub qo'chqorlardan olingan ko'k va qora rangdagi 7-oylik erkak yosh qo'zilar go'sh mahsuldorligi o'rganish natijalari quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval.

Go'sht mahsuldorligi (2024 y.)

Ko'rsatkichlar	Havorang		Po'latirang	
	ko'k, n=3	qora, n=3	ko'k, n=3	qora, n=3
	X±Sx			
So'yishdan oldingi tirik vazni, kg	27,9±2,54*	29,1±2,67	27,2±2,32	28,2±2,79*
Nimta vazni, kg	10,68±1,13	11,26±1,21*	10,36±1,07*	10,85±1,09
So'yim chig'imi, %	38,3	38,7	38,1	38,5
Lahm go'sht vazni, kg	7,64±0,65	8,11±0,09*	7,35±0,62	7,79±0,69*
Nimta vazniga nisbatan, %	71,5	72,1	71,1	71,8
Suyaklar vazni, kg	3,25±0,29	3,31±0,30*	3,17±0,27	3,23±0,31
Nimta vazniga nisbatan, %	30,4	29,3	30,6	29,8
Paylar vazni, kg	0,29±0,02*	0,26±0,03	0,30±0,03	0,28±0,02
Nimta vazniga nisbatan, %	2,7	2,3	2,9	2,6
Go'shtdorlik koeffitsenti	3,3	3,4	3,2	3,3

*p>0,05.

Go'sht mahsuldorligi bo'yicha 5-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ranglar orasida farqlanishlar kuzatilib, ko'k ranga mansub havorang rang-baranglikdagi yosh erkak qo'zilarida nimta vazni 10,68±1,13 kg-ni tashkil qilgan bo'lsa, tengdoshlari bo'lgan po'latirang rang-baranglikdagi qo'zilarida ushbu ko'rsatkich 10,36±1,07 kg-ga teng bo'ldi (p>0,05). Ya'ni rang-barangliklar orasidagi farq 0,2 % bo'ldi. Qora rangdagi qo'zilarida ushbu ko'rsatkich bo'yicha shunga mos ravishda 11,26±1,21 kg va 10,85±1,09 kg-ni tashkil qildi (p>0,001). Nimta vazniga nisbatan suyaklar havorang rang-baranglikdagi qo'zilarida 30,4 %, po'latirang rang-baranglikka mansub qo'zilarida esa, 30,6 %-ga teng bo'ldi. Shunga mos ravishda qora rangdagi qo'zilarida 29,3 % va 29,8 %-ni tashkil qildi. Go'shtdorlik koeffitsenti buyicha olingan ma'lumotlarda havorang va pulatirang rang-baranglikdagi qo'zilarida 3,3 bo'lib, ushbu ko'rsatkich qora rangdagilarida shunga mos ravishda 3,4 va 3,3-ni tashkil qildi.

Qo'zi juni havorang rang-barangli qo'chqorlardan olingan ko'k avlodlarda birmuncha kamroq bo'lib, urg'ochi qo'zilarda $832,3 \pm 76,8$ kg-ni tashkil qildi, erkak qo'zilarda esa ushbu ko'rsatkich $920,4 \pm 82,0$ kg-ga teng bo'ldi ($p > 0,05$). O'zining qora rangdagi tengqurlari bilan solishtirganda, $82,0$ g.-ga urg'ochi qo'zilarda va $74,9$ g.-ga kam bo'ldi. Bunday tendensiya po'latirang rang-barangli qo'chqorlardan olingan avlodlarda ham kuzatildi.

Ya'niy bu ko'rsatkich shunga mos ravishda urg'ochi qo'zilarda $794,8 \pm 67,8$ va $890,8 \pm 82,3$ g.-ni tashkil qilib ($p > 0,05$), erkak qo'zilarda esa, $1098,1 \pm 102,6$ va $951 \pm 87,0$ g.-ni tashkil qildi. Qora rangdagi qo'zilarda barcha avlodlardagi ko'k ranga nisbatan ustunlik qildi. Ushbu ustunlik bizning fikrimizcha, jun tolasi pigmentatsiyasi qanchalik yuqori bo'lishi ularning jun mahsuldorligiga ta'sir ko'rsatadi va shu bilan bir qatorda jun mahsuldorligi qo'zilar tirik vazniga ham bevosita bog'likdir. Tirik vazni bo'yicha olingan ma'lumotlarni jun mahsuldorligi bo'yicha olingan ma'lumotlar to'lig'icha tastiqlaydi.

Bahorgi jun mahsuldorligi bo'yicha olingan ma'lumotlarda shuni aytish mumkinki, qo'zi jun mahsuldorligi bo'yicha olingan tendensiyani tastiqlagan holda, havorang rang-barangli qo'chqorlardan olingan ko'k urg'ochi avlodlarda $1123,3 \pm 101,5$ g.-ni tashkil qilgan bo'lsa, erkak qo'zilarda $1198,3 \pm 115,7$ g.-ni tashkil qildi. Qora rangdagilarda esa, shunga mos ravishda $1209,2 \pm 113,4$ g. va $1259,7 \pm 121,8$ g.-ga teng bo'ldi. Shuni ta'kidlash mumkinki, jinlar orasida farqlanishlar kuzatilib, havorang rang-barangli qo'chqorlardan olingan ko'k rangli erkak avlodlarda urg'ochi qo'zilarga nisbatan, $75,0$ g. ustunlik qilgan bo'lsa, qora rangdagi avlodlarda esa ushbu ko'rsatkich $50,5$ g.-ni tashkil qildi. Bunday farqlanishlar po'latirang rang-barangli qo'chqorlardan olingan avlodlarda ham kuzatildi.

Kuzgi jun mahsuldorligi bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bahorgi jun mahsuldorligidan biroz past bo'lib, havorang rang-barangli qo'chqorlardan olingan ko'k rangli erkak avlodlarda urg'ochi qo'zilarga nisbatan, $126,0$ g. ustunlik qilgan bo'lsa, qora rangli qo'ylarda ushbu ko'rsatkich $97,5$ g.-ni tashkil qildi. Bunday tendensiya po'latirang rang-barangli qo'chqorlardan olingan avlodlarda kuzatildi, ya'niy farqlanish $56,4$ va $31,3$ g.-ni tashkil qildi.

Jami yillik jun mahsuldorligi bo'yicha olingan ma'lumotlarda yuqoridagi keltirilib o'tilgan ko'rsatkichlarni tastiqlagan holda, havorang rang-barangli qo'chqorlardan olingan avlodlar ko'k rangli urg'ochi qo'ylarda yillik jun mahsuldorligi $2070,5 \pm 190,7$ g.-ga teng bo'lgan bo'lsa, erkak qo'chqorlarda $2196,5 \pm 210,5$ g.-ni tashkil qilib, qora rangdagi urg'ochi qo'ylarda $2207,5 \pm 211,6$ g.-ga teng bo'ldi ($p > 0,05$) va qo'chqorlarda esa, $2305,0 \pm 228,9$ g.-ni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich po'latirang rang-barangli qo'chqorlardan olingan avlodlarda shunga mos ravishda $1979,5 \pm 187,8$ va $2085,8 \pm 198,4$ g.-ga qora rangdagilarda esa, $2175,0 \pm 207,6$ va $2274,2 \pm 219,8$ g.-ni tashkil qildi ($p > 0,05$).

Havorang rang-barangli qo'chqorlardan olingan avlodlarning ko'k rangli qo'ylarida tivit miqdori $34,58 \pm 3,13$ %-ni tashkil qilgan bo'lsa, kuzgi qirqimda $28,70 \pm 2,46$ %-ni tashkil qildi. Demak so'zimiz dalili sifatida aytish mumkinki,

tivit miqdori 5,72 %-ga bahorgi qirqim jun tarkibida ustunligini ko‘rish mumkin. Bunday holat qora rangdagilarda ham kuzatilib, ushbu ko‘rsatkich 6,7 %-ga teng bo‘ldi. Qilchiq jun miqdori ranglar bo‘yicha keskin farqlanishlar (16,1-16,3 %) kuzatildi.

